

Ochiq dars qiymati

Har qanday ochiq dars o'zining mazmun va mohiyati bilan yangilikka va taraqqiyotga bog'lannadigan bo'lsa, uning qiymati oshib boradi. Loyiha har bir sohaning tarhini chizishdek mas'uliyat bilan boshlanadi. Shuning uchun loyihalashtirish tushunchasi ayni davrda ommalashib borayotgani sir emas. Bu esa innovatsion g'oyalar va texnologiyalar sari keng yo'l ochadi.

2018 yil 23 noyabr kuni soat 08:30 da 613-xonada "Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlaridan foydalanish" kafedrasida dotsenti M.Ibragimovning "Proyektirovaniye sistem elektrifikatsii" fanidan "Proyektirovaniye elektrifikatsii nasosnyx stansiy" mavzusidagi ochiq darsi bo'lib o'tdi.

Ma'ruzada nasos stansiyalarining roli va Respublika qishloq xo'jaligidagi ahamiyati to'g'risida gapirib, sug'oriladigan yerlarga suv chiqazishda Respublikamizda mavjud nasos stansiyalarining joylashishi va ularning mamlakat rivojlanishidagi o'rni to'g'risida gapirib o'tdi. Buning uchun nasos stansiyalarini elektrlashtirish jarayonlarini loyihalash zarurligi va uni amalga oshirish ketma-ketligi to'g'risida batafsil tushuncha berdi.



Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov